

## **Urganch Davlat universitetini hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tadqiq qiluvchi va prognozlashtiruvchi ilmiy-amaliy muassasa darajasiga olib chiqish xususida**

Ma'lumki, bozor iqtisodiyoti raqobat sharoitidagina eng yaxshi faoliyat ko'rsatadi. Bu hol shu paytgacha ko'plab ilmiy risolalarda yetarli darajada isbotlangan. Shu sababli aksioma sifatida qabul qilinadi. Iqtisodchi olimlar raqobatning bozor mexanizmiga ijobiy ta'sirini ta'kidlab, raqobat kurashi sharoitida korxonaning hatti-harakatini tadqiq qiladilar, raqobat kurashining mohiyati va shakllarini o'rganadilar, raqobat sharoitida boshqaruv qarorlarini qabul qilish usullarini, jumladan, korxonalar rivojlanishi turli strategiyalarini shakllantirish va amalga oshirish xususiyatlarini tahlil qiladilar. Bulardan kelib chiqqan holda hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida aynan ichki ishlab chiqaruvchi korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish, ayniqsa texnika va texnologiyalar rivojlanib borayotgan hamda deyarli barcha sohalarda bosqichma-bosqich raqamlashtirish chora-tadbirlari amalga oshirilib borayotgan bugungi davrda, eng dolzarb mavzulardan ekanligini tushunishimiz mumkin. Bu esa albatta ilmiy-texnik asosga ega bo'lgan holda amalga oshirilishi lozim. O'zbekiston Respublikasining boshqa viloyatlari qatorida, Xorazm viloyatida ham har yili hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bo'yicha bir qancha investitsiya loyihalar amalga oshirilib kelinmoqda. Xususan, 2021-2022 yillarda viloyatni kompleks rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarida 812ta investitsiya loyihalari amalga oshirilishi hamda ularda 23 mingdan ortiq yangi ish o'rinlari yaratilishi mo'ljallangan. Bir tarafdin olib qaraganda, bu faqat olib borilayotgan iqtisodiy islohatlarning bir qismi sifatida ko'rinishi mumkin, lekin masalani mohiyatini chuqur anglaydigan bo'lsak, bu raqamlar hududda mexnat bozorini yanada takomillashtirishda, ishsizlik darajasini pasaytirishda va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashda muhim ahamiyat kasb etishi ma'lum bo'ladi. Bundan tashqari aholini, ayniqsa yoshlarni tadbirkorlikka jalb qilish, ularni kasbga o'rgatish va o'z bizneslarini yuritishlarida ham ahamiyatlidir. Ma'lumot o'rnida shuni aytishimiz lozimki, hududdagi ishsizlik darajasi Respublika miqyosidagi ishsizlik darajasidan yuqori ekanligi mazkur masalaning dolzarbligiga yana bitta dalil bo'la oladi. Ushbu masala yuzasidan, kundan kunga takomillashib borayotgan mexnat bozorida raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash, ularni mexnat bozorida o'zlarining munosib o'rnini egallashlari uchun yetarli darajada bilim va ko'nikmalarga ega qilib tarbiyalash har bitta oliy ta'lim muassasasining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Yaratilayotgan bo'sh ish o'rinlari bitiruvchi talabalar, shuningdek uyushmagan yoshlar va faol ish izlayotgan fuqarolar uchun o'z mutaxassisliklari va qiziqishlari bo'yicha ish topishi hamda oilaviy daromadini oshirishi uchun katta imkoniyat

hisoblanadi. Shunday bo'lsada, zamonaviy bilimlarni egallagan holda mustahkam ilmiy-texnik asosga ega biznes rejalar tuzgan holda tadbirkorlik faoliyatini olib borish bugungi yoshlarning asosiy maqsadlaridan biri bo'lishi lozim. Chunki ushbu chora-tadbirlar orqali jamiyatimizni yanada rivojlantirish hamda ishsizlik va kambag'allikni oldini olishga erishamiz. Buning uchun esa, xususan, tadbirkorlikda biznes rejaning mohiyatini, uni qanday tarkibiy qismlari mavjud ekanligini va ayniqsa uzoq muddatli strategik rejalar tuzishni bilish orqali eng dolzarb masalalardan biri bo'lgan korxonalarining samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlash lozim bo'ladi. Bu borada Urganch Davlat universitetida bugungi kunda qator chora-tadbirlar olib borilmoqda. Aynan tadbirkorlikni boshlash, biznes rejalar tuzish, start-up loyihalari tuzish, biznesni rivojlantirish, korxonalarini sotish va bozor ulushiga ega bo'lish bo'yicha marketing saboqlari olish, banklardan kredit mablag'lari olish va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish kabi masalalar bo'yicha fuqarolarning, xususan talaba yoshlarning o'zlarini qiziqtirgan savollariga javoblar olishi uchun Call markaz tashkil qilingan bo'lib, hozirda o'z faoliyatini olib bormoqda. Bundan tashqari, universitet professor-o'qituvchilaridan tarkib topgan jamoa tomonidan ijtimoiy tarmoqlarda, xususan YouTube kanalida yuqorida sanab o'tilgan masalalar yuzasidan batafsil tushunchalar berilgan video materiallar aholimizga taqdim qilib kelinmoqda. Tadbirkorlik qilish maqsadida bo'lgan aholimiz internet tarmog'i orqali ushbu video materiallardan o'zlari uchun muhim bo'lgan ma'lumotlarni olishlari mumkin. Bundan tashqari, O'zbekiston tarixiy shaharlarining o'tmish davriga virtual sayohat qilish loyihasi amalga oshirilib kelinmoqda. Bugungi kunning eng zamonaviy texnologiyalaridan foydalangan holda amalga oshirilayotgan ushbu loyihada xorijiy va mahalliy turistlarni jalb qilish va O'zbekiston turistik destinatsiyalarining raqobatbardoshligini oshirish maqsad qilingan.

2021-yil 16-iyun kuni oliy ta'lim tizimidagi ustuvor vazifalarga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishda Davlatimiz rahbari tomonidan o'quv jarayonini bozor talablariga moslashtirib, ishlab chiqarish bilan uzviylikini ta'minlash sohaning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida ta'kidlab o'tildi. Bunda o'qishning dastlabki bosqichlaridanoq talabalarning mutaxassisliklariga mos korxonalar va tashkilotlarda amaliyot o'tishi bo'yicha ishlarning olib borilishi, korxonalar va tashkilotlar hodimlari bilan talabalar uchrashuvlarini o'tkazib borish va talabalarga kasbiy tushunchalarga ega bo'lishida ularning tajribalaridan samarali foydalanish, talabalarda o'qishni tugatgandan keyin qaysi tashkilotda ishlashi va qanday faoliyat yuritishini rejalashtirish bo'yicha dunyo qarashini kengaytirish bo'yicha sharoitlar yaratib berish muhim ahamiyatga ega. Shuni aytib o'tish lozimki, yoshlarning raqobatbardosh kadr bo'lib shakllanishlari uchun, avvalo, oliy ta'lim muassasiga o'qishga kirmasdan oldin o'zlarining qiziqishlari va qobiliyatlarini hisobga olgan

holda kelgusida qaysi kasb egasi bo'lishi yuzasidan aniq maqsadga ega bo'lishlari muhimdir. Bu orqali ular oliy ta'lim davrida ishlab chiqarish bilan bog'liq holda ta'lim olishida samarali natijalarga erishishi mumkin bo'ladi. Shunday ekan o'quv davrida har bir talaba o'z oldiga aniq maqsad qo'ygan holda ishlab chiqarish korxonalar bilan hamkorlikda ta'lim olishga hamda zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishga harakat qilishlari lozim. Zero bu orqali ertaga nafaqat mahalliy, balki xalqaro darajada mexnat bozorida raqobatbardosh kadr bo'lishga erishadilar. Yuqorida sanab o'tilgan qator chora-tadbirlardan shuni xulosa qilishimiz mumkinki, jamiyatimiz ravnaqiga erishishda xalqimiz orzu istaklarini ro'yobga chiqishida raqobatbardoshlik bugungi davrning eng dolzarb masalalaridan biridir.

**Bunyod Matyusupov**

**UrDU Iqtisodiyot kafedrasi o'qituvchisi**